

O'ZBEKISTONDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI

Yaxshiboyeva Maftuna Xudoyor qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi: filologiya fakulteti 1-kurs
641-25 guruh talabasi maftunayaxshiboyeva6@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilining ahamiyati ortib borayotganini yoritadi. Unda mamlakatning global akademik va iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuviga qaratilgan ta'lim islohotlari natijasida talaba va o'qituvchilar orasida ingliz tiliga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada kuchaygani ta'kidlanadi. Maqolada ingliz tilining xalqaro ilmiy adabiyotlarga murojaat qilish, almashinuv dasturlarida ishtirok etish hamda bitiruvchilarning jahon mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, cheklangan o'quv resurslari, talabalar orasidagi til bilish darajasining turlicha ekanligi va malakali ingliz tili o'qituvchilariga ehtiyoj kabi mavjud muammolar ham tahlil etiladi. Muallif "ingliz tili o'qitishni kuchaytirish O'zbekiston oliy ta'lim sifatini oshirish va mamlakatning modernizatsiya hamda xalqaro hamkorlikka oid keng qamrovli maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega", deb yakun yasadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, oliy ta'lim, O'zbekiston ta'lim islohotlari, globalizatsiya, akademik mobillik, xalqaro hamkorlik, ilmiy kommunikatsiya, ta'lim sifati, chet tili o'qitish metodikasi, raqobatbardoshlik.

Аннотация: Данная статья посвящена возрастающей важности английского языка в высших учебных заведениях Узбекистана. В ней рассматриваются результаты образовательных реформ, направленных на интеграцию страны в мировое академическое и экономическое сообщество, и отмечается значительный рост потребности в английском языке среди студентов и преподавателей.

В статье подчеркивается, что английский язык важен для обращения к международной научной литературе, участия в программах обмена и повышения конкурентоспособности выпускников на мировом рынке труда.

Кроме того, анализируются существующие проблемы, такие как ограниченность учебных ресурсов, низкий уровень владения языком у некоторых студентов, а также нехватка квалифицированных преподавателей английского языка.



Автор делает вывод: «Повышение уровня преподавания английского языка имеет ключевое значение для улучшения качества высшего образования в Узбекистане, а также для поддержки широкомасштабных целей модернизации страны и международного сотрудничества».

Ключевые слова: Английский язык, высшее образование, реформы образования в Узбекистане, глобализация, академическая мобильность, международное сотрудничество, качество образования, методика преподавания иностранных языков, конкурентоспособность.

Abstract: The article explores the growing importance of the English language in higher education insitutions across Uzbekistan. It highlights the country's ongoing educational reforms aimed at integrating Uzbekistan into the global academic and economic community, which has significantly increased the demand for English proficiency among university students and faculty. The article examines how English serves as a vital tool for accessing international scientific literature, participating in exchange programs, and improving graduates' competitiveness in the global job market. It also discusses current challenges, including limited teaching resources, varying levels of language competence among students, and the need for more qualified English instructors. The author concludes that strengthening English language education is essential for enhancing the quality of higher education in Uzbekistan and for supporting the nation's broader goals of modernization and international collabroration.

Key words: English language, higher education, the educational reforms of Uzbekistan, globalization, academic mobility, international cooperation, scientific communication, foreign language teaching methodology, competitiveness.

Globalizatsiya jarayonining jadallashuvi, xalqaro hamkorlikning kengayishi hamda zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti oliy ta'lim tizimida ingliz tilining o'rnini keskin oshirdi.

Bugungi kunda ingliz tili nafaqat aloqa vositasi, balki ilmiy izlanish, innovatsiya, xalqaro tajriba almashinuvi va kasbiy muvaffaqiyatning ham asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta'limiy islohotlar ham aynan shu maqsadga qaratilgan bo'lib, ingliz tilini o'qitish va o'rganish sifatini oshirish yuqori ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi.

Dunyo ta'lim tizimida ingliz tili xalqaro fan tili sifatida e'tirof etiladi. Ko'plab ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari, akademik resurslar ingliz tilida chop etiladi.

Shuningdek:

JST (WEB OF SCIENCE) Scopus, PubMed kabi ilmiy bazalarning asosiy qismi ingliz tilida yuritiladi;





Ko'plab nufuzli universitetlar ingliz tilida ta'lim beradi;

Xalqaro talabalar almashinuvi dasturlari

(SUSI, CIF, Erasmus+, WIC) ingliz tilisiz deyarli imkonsiz;

Raqamli innovatsiyalar, IT, biznes, muhandislik yo'nalishlaridagi terminologiyaning asosiy qismi ingliz tiliga asoslangan. Shu sababli oliy ta'lim talabasi ingliz tilini bilish uning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ingliz tilini o'rganishni rag'batlantiruvchi keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi:

maktabdan boshlab ingliz tilini 1-sinfdan o'qitish joriy etildi;

oliy ta'lim muassasalarida CEFR darajalari asosida baholash tizimi tatbiq etildi;

ko'plab universitetlarda ingliz tilidagi darslar soni oshirildi;

o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar yo'lga qo'yildi;

talabalar uchun xalqaro til sertifikatlarini olishga sharoit yaratildi.

Bu islohotlar natijasida universitetlarda ingliz tiliga bo'lgan ehtiyoj va talab yana-da oshdi.

Ingliz tilining talabalarga taqdim etayotgan imkoniyatlari. Oliy ta'limda ingliz tilini bilish quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi.

1. Sof ingliz tilida chop etilgan ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilish.

Talabalar chet el ilmiy maqolalari, darsliklari va elektron resurslaridan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

2. Xalqaro loyihalarda ishtirok etish.

Ko'plab grantlar va ilmiy loyihalar ingliz tilini bilishni talab qiladi. Bu esa yosh olimlar va tadqiqotlar uchun keng imkoniyat yaratadi.

3. Akademik mobillik.

Talabalar va o'qituvchilar chet el universitetlarida o'qish, stajirovka o'tash, malaka oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

4. Mehnat bozorida raqonbatbardoshlik.

Ingliz tilini bilgan mutaxassislar xalqaro kompaniyalarda ish topish imkoniga ega bo'ladi.

5. Zamonaviy texnologiyalarni tez o'zlashtirish.

Ko'plab dasturiy ta'minotlar va o'quv platformalari ingliz tiliga asoslangan.

Mavjud muammolar. Shunga qaramay ingliz tilini o'qitish jarayonida bir qator muammolar mavjud:

o'qituvchilar malakasining hududlar bo'yicha notekisligi;

o'quv resurslarining yetarli emasligi;

amaliy mashg'ulotlar uchun yetarli muhitning yo'qligi;

talabalar til ko'nikmalarining farqli darajada bo'lishi.





Yechimlar.

o'quv darslari davomida kommunikativ meodlaridan keng foydalanish;

multimedia va onlayn platformalarni keng joriy etish;

chet ellik mutaxasisslarni jalb qilish;

inliz tili klublari va amaliy muhitlarini yaratish;

o'qituvchilarni muntazam ravishda qayta tayyorlash.

Xulosa. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ingliz tilining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

U nafaqat talabalarning kasbiy rivoji, balki mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatlashligini oshirishda hamda bevosita muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilini chuqur o'rganish ilmiy samaradorlikni oshiradi, ta'lim sifatini yaxshilaydi va yoshlarning global ta'lim hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Shuning uchun ham ingliz tilini o'qitish tizimini yana-da takomillashtirish va rivojlantirish O'zbekiston ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish to'g'risida" qarorlari va farmonlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining chet tillarini o'qitishni rivojlantirishga oid qarorlari.

3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ingliz tilini baholash va CEFR tizimini joriy etishga oid metodik ko'rsatmalari.

4. Nation, I.S.P. & Newton, J. Teaching ESL/ EFL Listening and Speaking. Routledge.

5. "Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

